



TOVAR-MODDIY ZAHIRALARNI BAHOLASH USLUBIYOTI VA ULARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH.

Jizzax politexnika instituti

“Iqtisodiyot va menejment” kafedراسي

i.f.f.d. (PhD) Bobobekov Baxrom Kaxxarovich.

Jizzax Politexnika instituti, buxgalteriya

hisobi yo ’nalishi magistranti

Eshmatova Nodira Rayimberdi qizi

Annotasiya: Ushbu maqolada korxonalarda tovar-moddiy zahiralarni (TMZ) baholash uslubiyotining nazariy asoslari, amaldagi hisobga olish tizimining kamchiliklari va uni takomillashtirish yo’llari tadqiq etilgan. Xalqaro moliyaviy hisobotlar standartlari (MHXS/IFRS) va O’zbekiston milliy standartlari (BHMS) doirasida TMZni baholashning FIFO, o’rtacha tannarx kabi asosiy usullari taqqoslangan va ular bilan bog’liq kamchiliklar aniqlangan. Maqola iqtisodchilar, moliyachilar va korxonalar boshqaruv xodimlariga mo’ljallangan.

Kalit so’zlar: tovar-moddiy zahiralalar, baholash uslubiyoti, FIFO usuli, o’rtacha tannarx, buxgalteriya hisobi, MHHS, BHMS, ERP-tizim, zahiralarni boshqarish, raqamlashtirish.

Abstract: This article examines the theoretical foundations of the methodology for valuing inventories (TMZ) at enterprises, the shortcomings of the current accounting system and ways to improve it. The main methods of valuing TMZ, such as FIFO and average cost, within the framework of International Financial Reporting Standards (IFRS) and the National Standards of Uzbekistan (NBSU), are compared and the shortcomings associated with them



are identified. The article is intended for economists, financiers and management personnel of the enterprise.

Keywords: inventories, valuation methodology, FIFO method, average cost, accounting, MFHS, BHMS, ERP system, inventory management, digitization.

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlashda tovar-moddiy zahiralarni (TMZ) to'g'ri baholash va samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Hisobga olish tizimidagi xatolar moliyaviy natijalarni noto'g'ri aks ettirishga, soliq bazasini buzilishiga va boshqaruv qarorlarining sifatini pasaytirishga olib keladi. Ayni vaqtda O'zbekiston korxonalarida TMZni hisobga olish va baholash bo'yicha standartlar xalqaro amaliyotdan ma'lum farqlanadi, bu esa ushbu mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi: TMZni baholash uslubiyotini chuqur o'rganish, amaldagi muammolarni aniqlash va ularni takomillashtirishga oid ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy qism. Товар-моддий zahiralarni baholashning nazariy asoslari

4-son BXMS ga asosan Товар-моддий zaxiralar - faoliyat yuritish jarayonida keyinchalik sotish maqsadida saqlab turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida bo'lgan, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlar.

MHHS (IAS) 2-sonli standartiga muvofiq, Zaxiralar -odatdagi faoliyat doirasida sotish uchun mo'ljallangan; sotish uchun ishlab chiqarish jarayonida bo'lgan; ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida ishlatiladigan xom ashyo yoki materiallar shaklida bo'lgan aktivlardir.



4-son BXMS ga asosan Tovar-moddiy zaxiralar quyidagi ikki qiymat: hisobot davri oxiridagi tannarxdan (xarid qiymati yoki ishlab chiqarish tannarxi) yoki realizatsiya qilishning sof qiymatidan eng kam qiymat bo'yicha baholanadi.

2-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti Zahiralariga asosan 3(a)-bandda nazarda tutilgan zahiralar ishlab chiqarishning ma'lum bir bosqichlarida sof sotish qiymati bo'yicha baholanadi. Bu, masalan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosili yig'ilganda yoki foydali qazilmalar qazib olinganda ularning sotilishi forward shartnomasi yoki davlat kafolati bilan ta'minlanganda yoki faol bozor mavjud bo'lganda hamda sotilmay qolish riski juda kam bo'lganda yuz beradi. Bunday zahiralariga nisbatan mazkur standartning faqatgina baholash bo'yicha talablari qo'llanilmaydi.

Tovar-moddiy zaxiralarini baholashda xalqaro va milliy me'yoriy hujjatlarning qiyosiy taqqoslanishi

Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti, “Zaxiralar” (2-son BHXS)	Buxgalteriya hisobining milliy standarti, “Tovar-moddiy zaxiralar” (4-son BHMS)
<i>Quyidagilarning eng kichigi (past) bilan baholanadi:</i>	
- tannarx (sotib olish narxi yoki ishlab chiqarish tannarxi); -realizatsiya qilishning sof qiymati	- tannarx; - sof sotish qiymati
<i>Zaxiralar tannarxi</i> ularni xarid qilish, qayta ishlash bo'yicha barcha sarflar va zaxiralarni joriy joylashgan joyiga hamda holatiga keltirish uchun amalga oshirilgan boshqa sarflarni o'z ichiga olishi lozim.	Tovar-moddiy zaxiralarning <i>tannarxi</i> - ularni xarid qiymatini (etkazib beruvchiga to'lanadigan summa) va xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlarni o'z ichiga oladi.
<i>Sof sotish qiymati</i> odatdagi faoliyat davomida ishlab chiqarishni yakunlashning	<i>Realizatsiya qilishning sof qiymati</i> - tovar-moddiy zaxiralarni maqsadiga



hisoblangan sarflari va sotishni amalga oshirishda zarur bo'lgan hisoblangan sarflar chegirib tashlangan hisoblangan sotish narxidir.	ko'ra ishlatiladigan holatga keltirish va realizasiya qilish bo'yicha baholangan xarajatlardan chegirilgan holda joriy qiymati.
---	---

Tovar-moddiy zahiralarni baholash usullari

Boshlang'ich baholash. Boshlang'ich qiymat (tannarx)

quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- xarid narxi;
- bojxona to'lovlari;
- transport-tayyorlov xarajatlari;
- qayta ishlash xarajatlari.

Baholash usullari

FIFO (First In – First Out)	AVEKO (O'rtacha tortilgan qiymat usuli)	Maxsus identifikatsiya usuli	Sof realizatsiya qiymati bo'yicha baholash
Birinchi kirgan zahira birinchi chiqadi deb hisoblanadi. Inflyatsiya sharoitida foyda ko'rsatkichi yuqoriroq bo'ladi.	Har bir birlik o'rtacha qiymatda baholanadi. Narxlar o'zgaruvchan bo'lganda muvozanatli natija beradi.	Har bir birlikning alohida tannarxi aniqlanadi. Eslatma: LIFO usuli xalqaro standartlarga muvofiq qo'llanilmaydi.	Agar zahiralarning bozor qiymati tannarxdan past bo'lsa, ular sof realizatsiya qiymati bo'yicha aks ettiriladi.



Korxonalar tovar-moddiy zaxiralarni baholash uchun bitta usulni (odatda FIFO yoki o'rtacha tannarx) tanlashi va uni hisob siyosatida mustahkamlashi zarur. Usul o'zgartirilgandagina qiyoslanuvchan hisobot ta'minlanadi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, tovar-moddiy zahiralarni baholash uslubiyoti korxonalar moliyaviy natijalari, soliq majburiyatlari va boshqaruv samaradorligiga bevosita ta'sir etadi.

Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatib kelayotgan yirik soliq to'lovchi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida tovar-moddiy zaxiralarni hisobini takomillashtirish uchun uchta asosiy yo'nalishda ishlash zarur:

Birinchi - uslubiy birlik va standartlar (BHMS va MHMS talablari) talablariga rioya etilishi;

Ikkinchi - raqamli texnologiyalarni joriy etish (ERP-tizimlar, shtrix-kod, RFID);

Uchinchi - mutaxassislar malakasini muntazam oshirish hamda mavjud BHMS larni MHMS larga moslashtirish.

Ushbu chora-tadbirlarning kompleks ravishda amalga oshirilishi tovar-moddiy zaxiralarni hisobini aniqligini oshirish, zararlarni kamaytirish va moliyaviy hisobotlar sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Bu o'z navbatida korxonalarining investisiya jozibadorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standarti "Tovar-moddiy zaxiralarni" 4-sonli BHMS.



2. “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi 13.04.2016 yildagi O‘RQ-404-son O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2022 yil 10 noyabrdagi 61-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan 2-son “Zaxiralar” Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti.
4. International Accounting Standard (IAS) 2 — Inventories. IASB, 2003 (amended 2005).
5. www.imv.uz. sayti axborotlari.